



Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi tahlili

**Burxanova Feruza
Abdurazzoqovna**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti, filologiya
Fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Rahmatullayeva Nargiza
Dilmurod qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika Universiteti Filologiya fakulteti “O'zbek
tili va Adabiyoti” yo'nalishi 1-bosqich talabasi.
E-mail: nargizarahmatullayeva387@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqola “Anor” hikoyasining badiiy xususiyatlari, undagi ramziy obrazlar tizimi va muallifning estetik qarashlari adabiy tahlil asosida yoritilgan. Asarda anor obrazi milliylik, poklik va umr davomiyligi timsoli sifatida talqin qilinib, qahramonlar ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Hikoyadagi voqealar rivoji, konfliktlar va xarakter yaratish tamoyillari orqali jamiyat hamda inson hayoti o'rtasidagi murakkab munosabatlar ochib berilgan. Bu hikoya bir necha avlod o'quvchilarda ijtimoiy adolat, insoniy qadriyatlar, orzular va iztiroblar haqida chuqur fikr uyg'otgan.

Kalit so'zlar: Anor, ramz, zamonaviy adabiyot, shaxs va jamiyat munosabati, milliy qadriyatlar, kambag'allik.

Annotation: This article illuminates the artistic features of Abdulla Qahhor's short story “Anor” particularly the system of symbolic images and the author's aesthetic views based on literary analysis. In the work, the image of the pomegranate is interpreted as a symbol of national purity and longevity of life, organically linked with the spiritual experiences of the characters and analyzed accordingly. Through the development of events in the story, conflicts and principles of character creation, the complex relationships between society and human life are revealed. This story, over several generations of readers, evoked deep thoughts about social justice, human values, dreams and sufferings.

Keywords: Pomegranate, symbol, contemporary literature, personality and social relations, national values, poverty.

Аннотация: В данной статье освещаются художественные особенности рассказа Абдуллы Каххара «Анор», в частности, система символических образов и эстетические взгляды автора на основе литературного анализа. В произведении образ граната интерпретируется как символ национальной чистоты и продолжительности жизни, он органично связан с душевными переживаниями героев и подвергается анализу. Через развитие событий в рассказе, конфликты и

принципы создания характеров раскрываются сложные отношения между обществом и человеческой жизнью. Этот рассказ на протяжении нескольких поколений читателей вызывает глубокие размышления о социальной справедливости, человеческих ценностях, мечтах и страданиях.

Ключевые слова: Анор, символ, современная литература, личность и общественные отношения, национальные ценности, бедность.

“Anor” hikoyasi Abdulla Qahhor ijodidagi ijtimoiy –psixologik nasrning yorqin namunasi hisoblanadi. Abdulla Qahhor (1907-1968)-o'zbek adabiyotining buyuk namoyandalardan biri, roman, hikoya, drama va tarjima janrlarida ijod qilgan yozuvchi, shoir va dramaturg. U XX asr o'zbek nasrining eng yorqin vakillaridan bo'lib, ko'pincha “o'zbek Chexovi” deb atalgan.

Abdulla Qahhor asarlari realistik uslub, inson ruhiyati tahlili va ijtimoiy tanqidi bilan ajralib turadi. 1936-yilda yozilgan “Anor” hikoyasi muallifning eng mashhur qisqa nasriy asarlaridan biri hisoblanadi. Bu hikoya o'tmishdagi o'zbek jamiyatidagi qashshoqlik, sinfiy tafovut va insoniy iztiroblarni ramziy va realistik uslubda yoritgan.

“Uylar to'la non, och nahorim bolam

Ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam” epigrafi bilan boshlandi.

Hikoya asosan o'tmishdagi qashshoq o'zbek hayotini aks ettiradi. Asosiy qahramonlar – kambag'al er-xotin Turobjon va uning xotini. Ularning hayoti ochlik, qashshoqlik va umidsizlikda o'tadi. Hikoya epigrag orqali jamiyatdagi paradoks – boylik va faravonlik bor, ammo undan kambag'allar bahramand bo'lolmasligi ko'rsatiladi. Chunki Turobjonning ayoli non emas, suv emas, sovg'a qilingan hatto anordan ham qimmat asal ham emas, aynan kamyob anor xohlayotgani uchun zornayotgandir. Ushbu holat o'sha davrdagi bir kambag'al oilaning holatini ayanchli tarzda tasvirlaydi. Sababi, bola tug'ilmasdan och. Turobjon ham yirtilgan ko'ylagi-yu to'kilgan jo'xoridan qattiq alamdagi holati tasvirlanadi. Sababi shundaki, o'sha kelida tuyulgan jo'gori bilan qorako'zlarni kuni o'tar edi. Bu yerda “kambag'al” deyilganda nafaqat oddiy olianing yeyishga noni yo'qligi butun jamiyat ongining o'z haq – huquqlarini tanimay, ilmsizlikka duchor bo'layotganini ham yaqqol namoyon etgan. Turobjon va uning qo'shnisi Mullajon qozi obrazlarida yaqqol ko'rinadi. Ular uchun anor topilmaydigan, qimmatbaho, tug'ilmagan bolani “yer yutkur” deya qarg'ashga arziydigan yoki Turobjon asal olib kelganiga xotining noroziligidan jahli chiqib “jigarlaring ezilib ketsin” deya ta'na qilishga, yo xotiniga qo'l ko'tarishga hattoki, o'g'irlik qilishga majbur qiladigan noyob bir narsa bo'lsa, uning qo'shnisi Mullajon qozining bog'idagi anor daraxtida anorlar choynakday, choynakday bo'lib osilib yotadi. Yoki mana shu Mullajon qozi to'yida har biri uch miridan bo'lgan yetmish besh so'mga yuzta mushak otsa, uning qo'shnisi bir tangaga bitta anor sotib ololmaydi. Aynan mana shu o'rinda, boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovut ifodalangan. Yozuvchi Turobjonning anor emas asal olib kelganligi uchun yuzining qizarishida andisha va xijolatni ifodalasa, xotining ko'zi qizargan holda kelishi og'ir ichki alamni ifodalaydi. Yuzda aks etgan alamni, qo'rquvni boshqa bir rang yuzning oqarishi bilan tasvirlaydi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotini qo'rqib ketdi bu qadar oqargan “... Qahhor hikoyalardagi kuchli hayajonni yolg'iz bo'yoqlar yordami bilan emas, balki, barcha ta'na a'zolarining ishtiroki, ya'ni titrash

,qaltirash harakatlari bilan ham ifodalaydi .”Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi va uyning o’rtasiga uloqtirdi.Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi,bir nechasi obrezga tushdi.Turobjon xotiniga qaradi.Uning rangini ko’rib xotini qo’rqib ketdi.

“- Qayyoqqa bordingiz –dedi ,entikib .Nima qildingiz ?

Turobjon javob bermadi uning vujudi titar edi”.

Aynan hikoya oxirida keltirilgan quyidagi parcha asar kulminatsiyasi deya olamiz .Bu Abdulla Qahhorning yozuvchilik borasidagi o’ziga xos va mos bo’lgan mahorati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda hikoyada anor ramzi orqali oila ichidagi mehr-oqibat,hurmat va kichik orzularning ahamiyati ta’kidlanadi.Yoshlar xatolar katta oqibatlarga olib kelishini anglab ,oilaviy munosabatlarda sabrli bo’lishni o’rganadi.Qahramonlarning ruhiy iztiroblari orqali yoshlar qiyinchiliklarda umidni yo’qotmaslik ,mehnat va halollikni qadrlashni tushunadi.Bu ularni ma’naviy kamolotga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar . Besh jildlik . Birinchi jild . “G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”Toshkent,1987
2. Marxabo Qo’chqorova ,Abdulla Qahhor – istiqloq adabiyotshunosligi ko’zgusida (monografiya) Toshkent: Akademnashr, 2018
3. Marxabo Qo’chqorova “Badiiy so’z va ruhiyat manzaralari”.”Muharrir”nashriyoti. Toshkent 2011.Ozod Sharafiddinov asarlarida Abdulla Qahhor shaxsiyati .(99b)
4. Marxabo Qo’chqorova “O’tmishdan ertaklar tadqiqi “Yangi asr avlodi Toshkent 2016.